



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 454 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi	
Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
Shermatova Yakut Sabirovna	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
Turdiyeva Zilola Jalilovna	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
Xalikova Umida Mirovna	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
Kushakova Gulnora Egamkulovna	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
Normurodova Gulnora Ikromovna	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
Jurakulova Dildora Ziyadullayevna	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
Kazakova Saxiba Abdurayimovna	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
Ziyayev Adxamjon	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
Jo'rayeva Nozima Nozim qizi	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
Teshaboyeva Feruza Raximovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
Ashirova Sojida Baxromovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna	

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	
Mentorlik faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	229
Zikriyayev Zokir Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish.....	232
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Sunnatullayeva Amina	
Professional kompetentlik va uning shaxs psixologik xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi	235
Artikova Nodira Shavkat qizi	
Talaba qizlarni jismoniy faolligini rivojlantirish tasnifi va ularni orgatish metodikasi.....	240
Otasheva Oysanamxon Hamidulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik	245
Bekchanova Kuvanch Roximovna	
Voleybolchilarni tayyorlashda differensial vositalaridan foydalanishning zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	249
Kambarov Kozimjon Ibragimovich	
2-toifa diabet bilan bog'liq stressga qarshi kurashish strategiyalari va psixologik holatlar	254
Sadikova Umida Botirovna	
Boshlang'ich ta'limda vizual va multimediaviy texnologiyalarning pedagogik-psixologik ahamiyati	258
Raximova Faridabonu Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida VARK modeli asosida multimodal o'qitishni tashkil etish (OAK talablariga mos maqola).....	261
Raximova Mushtariy Alisher qizi	
Raqamli ta'lim muhitida veb-texnologiyalar asosidagi platformalarning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va optimallashtirish	264
Zoxidov Jahongir Botirxonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini umumta'lim jarayonida ona tili darslarida rivojlantirish metodikasi.....	272
Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari	276
Teshabayeva Oyguil Fazliddinovna	
Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga o'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlashning ta'siri	280
M. R. Sultonova	
Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda bemor o'quvchilar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglarga qo'yiladigan talablar	284
Umarova Saboxon Minavvarovna, Abdusattorova Gulxumor	



Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish masalalariga doir	287
Erkayev Elmirza Temirovich	
10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish metodikasi.....	294
Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich	
Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining samaradorligini oshirish usullari	298
Yaqubov Arslon Maxmudovich	
Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishi	301
Dinora Eshboyeva Alisher qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish. Axloqning kelib chiqishi va asoslanish masalasini nazariy tahlil qilish	306
Shaxayev Bauirjan Seytgalievich	
Maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llashda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	310
Ahmedova Zuhraxon Mamurovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyati	314
Mirzabayeva Zebo Umarovna	
Elektrolitlarda elektr toki mavzusini o'qitishda noto'g'ri tasavvurlar va ularni bartaraf etish metodikasi	317
Xoliqov Qurbonboy To'ychiyevich	
Mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya faoliyatini takomillashtirish ..	323
Ibodullaeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda montessori metodikasining uyg'unligi	327
Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi, Xaydarova Shaxlo Narzullayevna	
XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy tillar taraqqiyotini o'rganishda "Kitob ul-Bulg'at" asarining lingvistik tadqiqi	332
Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi	
Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish.....	336
Nabiyev Feruz Abdumannonovich	
STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.....	341
Choriyor Maxmatraimov Eshmatovich	
Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish	345
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna	
Raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish (texnologiya fanini o'qitish misolida).....	348
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna	
O'zbek tili – faxrim, g'ururim	351
H. Shukurova, M.Jumanazarova	
Zamonaviy dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni.....	355
M. Kuzibayeva	
Talabalarni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	358
Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li	
Raqamli maktabda yashil o'quv dasturi: kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyaning pedagogik modeli.....	362
Maxmudov Abdiqodir Yusupovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik empatiyani shakllantirish pedagogik muammo sifatida	367
Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	371
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari	377
Sh. A. Xujakulov, T. B. Kadirov	
Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanishning roli.....	383
Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li	
Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida bilish etikasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya	387
Tursunova Nilufar Samiyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	393
Tursunova Saidra Isakovna	
Yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlik tarbiya texnologiyasining o'rni	396
Pirlijeva Gulmira Botir qizi	
Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmuallardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollari.....	400
Nabiyev Feruz Abdumannonovich, Mamanazarov Baxrom Jumonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatda bilish jarayonlarini rivojlantirish	405
Sadirova Kamola Giyozovna	
Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati.....	409
O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlari.	413
Xalmuxamedov Bobir Taxirovich	
О развитии учебно-познавательной деятельности студентов	418
М. Халикова	
Психологические механизмы искажения истины в процессе социализации: нормативно-когнитивная модель и смешанное эмпирическое исследование	421
С. Ю. Нишанов	
Методы повышения речевой активности студентов в процессе обучения иностранному языку.....	425
Утешова Зернегул Хурметуллаевна	
Prenatal va erta chaqaloqlik rivojlanishi va rivojlanishning biologik asoslari	429
N. Mirbabayeva	
O'smir shaxsining rivojlanishi	433
Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayotida jadidlarning tutgan o'rni	435
N. M. Qodirova	
Development of Physical Qualities Through the Use of Special Physical Exercises With Student Participation.....	439
Rikhsiev Dilshod Shavkatovich	
Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati	442
Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi	
Special Physical Exercises in Coxarthrosis During the Preoperative and Postoperative Periods of Rehabilitation.....	446
Valiev Farrukh Nigmatjonovich	
Роль цифровых технологий и дидактических принципов в учебных практик.....	449
Байметов М. М.	



CHET TIL TA'LIMIDA MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISH MASALALARIGA DOIR

Erkayev Elmirza Temirovich

Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish va amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda mashqlar tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. Mustaqil ta'lim talaba va kursantlarning chet tilda bilim, ko'nikma hamda malakalarini mustaqil ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon, ayniqsa, chet tilini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta'lim faoliyati bevosita auditoriyada hamda auditoriyadan tashqari sharoitlarda tashkil etiladi.

Kalit so'zlar: chet til ta'limi, mustaqil ish, mustaqil ta'lim, mustaqil fikrlash, mustaqil izlanish, mustaqil tayyorgarlik.

Abstract: In foreign language teaching, considerable importance is attached to the organization and implementation of independent work. In this process, special attention is paid to the system of exercises used in independent learning. Independent learning involves the autonomous development of students' and cadets' knowledge, skills, and competencies in a foreign language. This process is particularly significant in foreign language education. Independent learning activities are organized both within the classroom and beyond it.

Key words: foreign language teaching, independent work, independent learning, independent thinking, independent research, independent preparation.

Аннотация: В обучении иностранным языкам значительное место отводится организации и проведению самостоятельной работы. При этом особое внимание уделяется системе упражнений, используемых в процессе самостоятельного обучения. Самостоятельное обучение предполагает развитие знаний, умений и навыков обучающихся и курсантов в иностранном языке на основе самостоятельной деятельности. Данный процесс имеет особое значение в обучении иностранным языкам. Самостоятельное обучение организуется как в аудиторных условиях, так и вне аудитории.

Ключевые слова: обучение иностранным языкам, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, самостоятельное мышление, самостоятельное исследование, самостоятельная подготовка.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida¹gi PQ-5117-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli² qarori hamda Yevropa Kengashining "Chet tilni egallash umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference)ga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Mustaqil ta'lim – bu talaba va kursantlarning bilim hamda ko'nikmalarini belgilangan sohada mustaqil ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon, ayniqsa, chet til ta'limida muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ta'limni tashkil etishda tarjimaning ham ayrim elementlaridan foydalaniladi. Chunki tarjima orqali so'zning nafaqat lug'aviy, tub, asl va ekvivalent ma'nolarini aniqlash, balki mustaqil mushohada yuritish, fikrlash va izlanish faoliyatini amalga oshirish talab etiladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori: <https://lex.uz/en/docs/-5426736>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-5431845>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mustaqil ta'limni tashkillashtirish metodikasi – bu talaba va kursantlarning mustaqil ravishda bilim olish, ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishni maqsad qilgan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish usullari va prinsiplari majmuasini o'rganadigan sohadir. Ushbu metodika zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi, chunki u talaba va kursantlarning shaxsiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'limning maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- bilimlarni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- mas'uliyat hissini oshirish;
- ijodiy yondashuv hamda innovatsion fikrlashni rivojlantirish, tafakkurini va mustaqil ishlash qobiliyatini kuchaytirish.

Chet tilda mustaqil ta'limning quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin:

- bevosita o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim (ko'rsatma va tavsiyalar asosida olib boriladi);
- to'liq mustaqil ta'lim (talaba mustaqil ravishda bilim oladi – kitoblar, internet manbalari, videodarslar va boshqalar orqali);
- guruhli mustaqil ta'lim (guruhda ishlash asosida bilim va tajriba almashish).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

- topshiriq berish usuli – aniq vazifalar va savollar orqali;
- muammoli ta'lim – talabaga muammoli vaziyat berilib, yechimni mustaqil topish talab etiladi;
- tadqiqot usuli – muayyan mavzu bo'yicha izlanish va tahlil olib borish;
- keys-metod – real holatlar tahlili asosida o'qitish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda qo'llaniladigan vositalarga darsliklar va o'quv qo'llanmalar, elektron resurslar (PDF shaklidagi materiallar, video, audio va taqdimotlar), internet manbalari (ilmiy maqolalar, forumlar, leksi-yalar), testlar va nazorat ishlari kiradi.

Mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari joriy nazorat (testlar, so'rovnomalar, esse yozish), oraliq nazorat (topshiriqlar, referatlar) hamda yakuniy nazorat (imtihonlar, kurs ishlari, loyihalar) orqali amalga oshiriladi.

Pedagog uchun tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- mustaqil ta'lim uchun aniq ko'rsatmalar va manbalarni taqdim etish;
- qiyinchiliklar yuzaga kelganda maslahat berish;
- baholash mezonlarini oldindan tushuntirish;
- talabalarni rag'batlantirish.

Mustaqil ta'limni baholash metodlari talabalarning mustaqil ravishda bajargan ishlari, bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, baholash hamda tahlil qilishga qaratilgan usullar majmuasidir. Ushbu metodlar orqali talabaniq mustaqil ishlash darajasi, ijodiy yondashuvi va faolligi baholanadi.

Baholashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ta'lim samaradorligini aniqlash;
- talabaniq bilim darajasini baholash;
- o'quv jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash;
- faol va ijodiy yondashuvni rag'batlantirish.

Test sinovlari (test orqali baholash) qisqa vaqt ichida katta hajmdagi bilimlarni tekshirish imkonini beradi. Testlar yopiq (to'g'ri javobni tanlash), ochiq (javob yozish) hamda aralash turda bo'lishi mumkin.

Loyiha (proyekt) ishlari aniq mavzu bo'yicha material to'plash, tahlil qilish va amaliy yechimlar taklif etish orqali baholanadi hamda jamoaviy yoki individual shaklda bajarilishi mumkin.



Portfolio usuli talabani mustaqil o'rgangan mavzulari, ishlanmalari va tajribalari yig'indisini ifodalaydi. Ushbu usul talabani vaqt davomida rivojlanishini kuzatishga yordam beradi.

Ochiq savollar va suhbatlar orqali fikrlash qobiliyati, mantiqiy izoh berish hamda tushunganini ifoda etish ko'nikmalari baholanadi.

Prezentatsiya va taqdimotlar talabani o'rgangan mavzusini boshqalarga yetkazish qobiliyatini baholashga xizmat qiladi. Bunda ishonchli nutq, vizual materiallar va tushunarli ifodalar muhim hisoblanadi.

Ta'limiy loyihalarni himoya qilish (referat, kurs ishi yoki ilmiy tadqiqot natijalarini himoya qilish) orqali talabani umumiy tayyorgarlik darajasi aniqlanadi.

Jurnal va kundaliklar talabani kundalik faoliyati va bajarilgan ishlari qayd etiladigan vositalar bo'lib, refleksiya qilish hamda o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Faoliyatni baholash (rubrikatorlar orqali) aniq mezonlar asosida, jumladan tahlil sifati, foydalanilgan manbalar soni va ijodkorlik darajasi bo'yicha amalga oshiriladi(1-jadval).

1-jadval: **Qo'shimcha baholash usullari**

Usul nomi	Afzalliklari
Onlayn testlar	Tez va avtomatik natija, masofadan baholash imkoniyati
Peer tutoring	Talabalar bir-birining ishlarini baholaydi
O'z-o'zini baholash	Tanqidiy fikrlash va refleksiyaning rivojlantiradi
Fokus-guruh bahosi	Guruhda fikr-mulohaza almashish asosida amalga oshiriladi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mustaqil tayyorgarlik – bu talaba va kursantning o'qituvchining doimiy rahbarligisiz, o'z vaqtida, o'z imkoniyatlari hamda mavjud manbalari asosida bilim olish, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidir.

Mazkur jarayon ta'lim oluvchining shaxsiy mas'uliyati, tashabbusi va intilishiga asoslanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida mustaqil tayyorgarlik muhim o'rin tutadi, chunki u o'quvchini faol, mustaqil fikrlovchi hamda muammolarni hal eta oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqsadlari:

1. Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.
2. Tahlil qilish hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish.
3. Ta'lim dasturidan orqada qolmaslik.
4. Ish va ta'lim jarayonini uyg'unlashtirish (axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim orqali).
5. Ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishga ko'maklashish (2-jadval).

2-jadval: **Mustaqil tayyorgarlik shakllari**

Shakl	Tavsifi
Matn bilan ishlash	Darsliklar, qo'llanmalar, maqolalarni o'qish va tahlil qilish
Mashq bajarish	Statika va dinamikadagi mashqlarni bajarish
Onlayn o'rganish	Videodarslar, testlar, platformalar (Coursera, Moodle)
Yozma ishlar	Referat, esse, kurs ishi, tahlil ishlari
Taqdimot tayyorlash	Mavzu bo'yicha ma'lumot to'plash, taqdimot qilish
Guruhda ishlash	Guruhdagi hamkorlik orqali bilim almashish va tayyorgarlik

TAHLIL VA NATIJALAR

Chet tili ta'limida mustaqil tayyorgarlikni tashkil etishning quyidagi usullari o'z samarasini berishi mumkin:

1. O'quv reja asosida rejalashtirish – fan bo'yicha haftalik/oylik ish rejasini tuzish.
2. O'z vaqtida boshlash va muntazamlilik – ishini kechiktirmasdan muntazam olib borish.
3. Aniq maqsad qo'yish – har bir o'quv sessiyasi uchun maqsad belgilash.
4. Manbalarni tanlash – darsliklar, internet resurslari, videodarslar, podkastlar, maqolalar va boshqa manbalar.
5. O'z-o'zini nazorat qilish – testlar, so'rovnomalar hamda savollarga javob berish orqali.



Samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar:

1. Vaqtni to'g'ri boshqarish (taymer, kunlik reja, "Pomodoro" usuli).
2. Qayta takrorlash (intervalli takrorlash – spaced repetition).
3. Bilimlarni boshqalarga tushuntirish (samarali o'rganish usullaridan biri).
4. Savollar tuzish va ularga javob berish.
5. Maqsadlarni yozib borish va ularni kuzatish.

Mustaqil tayyorgarlik natijalarini baholash: O'z-o'zini baholash (refleksiya), testlar va sinov ishlari, o'qituvchi fikri, himoya va taqdimotlar, portfolioni tuzish.

"Pomodoro" usuli – vaqtni samarali boshqarishga qaratilgan texnika bo'lib, u 1980-yillarda italiyalik tadqiqotchi Franchesko Chirillo (Francesco Cirillo) tomonidan yaratilgan. "Pomodoro" so'zi italyan tilida pomidor degan ma'noni anglatadi. Ushbu nom muallif tomonidan tomat shaklidagi taymerdan foydalanilgani sababli berilgan.

Usulning maqsadi: diqqatni jamlash; chalg'ishlarni kamaytirish; samaradorlikni oshirish; vaqtni oqilona taqsimlash; yalqovlik va kechiktirishni (procrastination) yengish.

"Pomodoro" usuli qanday ishlaydi? Asosiy qoidalar:

1. Bajarilishi lozim bo'lgan bitta vazifani tanlash.
2. Taymerni 25 daqiqaga qo'yish – bu bitta "Pomodoro".
3. Taymer ishlayotgan paytda faqat tanlangan vazifa bilan shug'ullanish.
4. Taymer chalingach, 5 daqiqalik tanaffus qilish.
5. 4 ta "Pomodoro"dan so'ng 15–30 daqiqalik katta tanaffus olish(3-jadval).

3-jadval: **Pomodoro usuli**

Pomodoro	Ishlash vaqti	Tanaffus
1	25 daqiqa	5 daqiqa
2	25 daqiqa	5 daqiqa
3	25 daqiqa	5 daqiqa
4	25 daqiqa	15–30 daqiqa

Nega bu usul samarali? Qisqa vaqt oraliq'ida ishlash inson diqqatini jamlashni osonlashtiradi. Tanaffuslar miyaga dam berish imkonini beradi.

Vaqtni o'lchash vazifaning yakuniga yetishida motivatsiyani oshiradi. Chalg'itishlardan saqlanishga yordam beradi (chalg'ishlar yuzaga kelsa, ular yozib qo'yiladi va keyinchalik ko'rib chiqiladi).

Foydali maslahatlar:

- vaqt davomida barcha chalg'itish vositalarini (telefon, ijtimoiy tarmoqlar) o'chirib qo'yish;
- ishlash uchun aniq maqsad belgilash;
- "Pomodoro" jarayonlarini qayd etib borish;
- uzoq muddatli ishlarni bir necha "Pomodoro"ga bo'lib bajarish.

Intervalli takrorlash (Spaced Repetition) – bu bilim va ma'lumotlarni ma'lum vaqt oraliq'ida, tanaffuslar bilan qayta-qayta takrorlash usuli bo'lib, ma'lumotlarni uzoq muddat davomida xotirada saqlash imkonini beradi. Ushbu usul inson miyasi ma'lumotlarni vaqt o'tishi bilan unuta boshlashini hisobga olgan holda, takrorlashni unutish ehtimoli yuqori bo'lgan vaqtlarda amalga oshirishga asoslanadi.

Ebbinghausning unutish qonuni (Forgetting Curve): Nemis psixologi German Ebbinghaus (Hermann Ebbinghaus) aniqlagan qonuniyatga ko'ra: yangi ma'lumotni eslab qolish darajasi vaqt o'tishi bilan pasayadi; agar ma'lumot ma'lum vaqtda qayta takrorlansa, u uzoqroq vaqt xotirada saqlanadi; har bir takrorlashdan keyingi interval bosqichma-bosqich uzaytirib boriladi.



Intervalli takrorlash qanday ishlaydi? Masalan, biror yangi so'z yodlangan holatda quyidagi jadval orqali ifodalanadi:

4-jadval: Intervalli takrorlash

Takrorlash soni	Vahti
Birinchi marta	O'sha kuni (yoki darhol)
Ikkinchi marta	1 kundan so'ng
Uchinchi marta	3 kundan so'ng
To'rtinchi marta	7 kundan so'ng
Beshinchi marta	15 kundan so'ng
Oltinchi marta	1 oydan so'ng

Ushbu intervallar shaxsiy xotira xususiyatlariga qarab o'zgarishi mumkin.

Qo'llash uchun vosita, ilova va dasturlar:

1. Anki – kartalar (flashcards) asosida intervalli takrorlash tizimi;
2. Quizlet – vizual va audio materiallar bilan ishlash imkoniyati;
3. SuperMemo – mazkur metodni birinchi bo'lib amaliyotga joriy etgan dastur;
4. RemNote, Brainscape, Memrise.

Flashcards (kartalar) usuli: Old tomonida savol yoki so'z, orqa tomonida esa javob yoki tarjima beriladi. Qiyin yod olinadigan kartalar ko'proq takrorlanadi.

Usulning afzalliklari:

1. Ma'lumotlarni uzoq muddat xotirada saqlash;
2. Unutish jarayonini sekinlashtirish;
3. Vaqtdan samarali foydalanish;
4. Xotira va diqqatni kuchaytirish;
5. Ta'lim jarayonini individuallashtirish imkoniyati.

Internet bilan ishlash imkoni bo'lmagan sharoitda ham mustaqil tayyorgarlikni samarali tashkil etish mumkin. Bunday vaziyatlarda an'anaviy va axborotsiz ta'lim usullari qo'llaniladi. Quyida bunday sharoitda samarali o'rganish uchun tavsiya etiladigan metodlar va resurslar keltiriladi.

Matn va kitoblar asosida o'qish.

Tavsiya etiladigan usullar:

- darsliklarni boshidan oxirigacha tahlil qilish;
- qaydlar yozish (konspekt tuzish);
- kitobdagi savollarga yozma javoblar tayyorlash;
- har bir bo'limdan so'ng xulosa chiqarish.

Masalan: Har bir paragrafdan so'ng o'zingizga quyidagi savollarni bering:

1. Nima haqida edi?
2. Eng muhim ma'lumot nima?
3. Ushbu ma'lumotni qayerda qo'llash mumkin?

Qaydlar (konspektlar) tayyorlash va qayta yozish: Oqilona va tizimli konspekt tuzish; diagramma, jadval va grafiklar orqali ma'lumotlarni vizuallashtirish; aqliy hujum (mind map) usulidan foydalanish.

Savol-javoblar yozish va o'ziga test tayyorlash: Material o'rganilgandan so'ng savollar tuzish va ularga yozma javoblar tayyorlash. Ushbu usul mustaqil tafakkur va eslab qolish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

"Flashcard"larni qog'ozda tayyorlash: Internetdan foydalanish imkoniyati bo'lmagan sharoitda ham flesh-kartalarni qo'lda tayyorlash mumkin. Bunda kichik qog'oz parchalari yoki kartochkalar tayyorlanadi: old tomonida so'z, savol yoki tushuncha; orqa tomonida esa ta'rif, javob yoki misol yoziladi.



Ba'zi chet tilidagi misollar:

Welchen Charakter hat dein Freund? Mein Freund hat einen starken Charakter. Er ist ehrlich und offen, gutmütig und aufrichtig, zuverlässig und optimistisch.

Suchen Sie ab und zu Kochrezepte im Internet? Ja, ich suche regelmäßig nach neuen Kochrezepten im Internet. Oft finde ich Inspiration auf Webseiten oder in Videos, besonders wenn ich etwas Neues ausprobieren möchte. Es ist praktisch, weil ich so viele verschiedene Rezepte aus unterschiedlichen Ländern kennenlernen kann. Ich speichere mir die Rezepte, die mir gefallen, und probiere sie dann aus. Manchmal passe ich die Rezepte an, wenn ich nicht alle Zutaten habe.

Referat va yozma ishlar tayyorlash: Belgilangan mavzular bo'yicha referatlar yozish; bir nechta manbalarni taqqoslash va o'z fikrini ifodalash; yozilgan materiallarni qayta o'qish orqali tafakkurni mustahkamlash.

Ovozli o'qish va "o'zingga tushuntir" usuli: Matnni ovoz chiqarib o'qish xotirani mustahkamlaydi. O'rganilgan ma'lumotni go'yo boshqa shaxsga tushuntirayotgandek bayon etish Feynman metodi deb ataladi.

Vaqtni to'g'ri rejalashtirish: Internetdan foydalanish imkoniyati cheklangan sharoitda vaqtni rejalashtirish alohida ahamiyatga ega.

5-jadval: Vaqtni rejalashtirish

Vaqt	Faoliyat
08:00–09:00	Qayta o'qish (konspekt yozish)
10:00–11:00	Savollar tuzish va javoblar tayyorlash
14:00–15:00	Flesh-kartalar bilan ishlash
16:00–17:00	Referat yoki esse yozish

Tafakkur va fikrlash mashqlari. Mavzu bo'yicha "Nima bo'lsa-edi..." kabi savollar ustida o'ylab ko'rish; misollar keltirish hamda tushunchalarni amaliyotda qo'llashga harakat qilish tavsiya etiladi.

Chet tilda tarixiy kino va adabiyotning mustaqil ta'limdagi o'rni

1. Mavzuni tushunish va qiziqishni oshirish. Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot insonlarga voqealar, tarixiy davr, madaniyat hamda urf-odatlarini real yoki tasviriy ko'rinishda namoyish etadi. Ular ma'lumotlarning emotsional va vizual shaklda qabul qilinishini ta'minlaydi, bu esa o'rganuvchilarda mavzuga nisbatan qiziqishni oshiradi.
2. Ma'lumotlarni ko'proq va chuqurroq o'zlashtirish. Kitoblar va filmlar orqali faktlar o'zaro bog'liq holda, kontekstda qabul qilinadi, bu esa ularni tushunishni osonlashtiradi. Ushbu usullar qabul qilingan ma'lumotlarni xotirada mustahkamlashga yordam beradi.
3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot ko'pincha turli nuqtai nazar va talqinlarni taqdim etadi. Bu o'rganuvchilarga voqealarni turlicha baholash hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.
4. Mustaqil o'rganish uchun resurs sifatida. Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot mustaqil o'rganishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi. Ular o'quvchiga turli manbalar bilan tanishish, o'ziga xos izlanishlar olib borish imkonini beradi.
5. Madaniy va axloqiy qadriyatlarni anglash. Mavjud asarlar orqali madaniyat, an'ana va xalqlarning axloqiy jihatlari haqidagi bilimlar oshiriladi. Bu esa insonparvarlik va millatlararo madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.
6. Mustaqil tahlil va izlanishga undash. Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot o'rganuvchini savollar berishga, faktlarni taqqoslashga va izlanishga undaydi. Shu orqali mustaqillik va tashabbuskorlik salohiyati oshadi.

Qo'llanish bo'yicha tavsiyalar:

- Mustaqil o'rganish jarayonida adabiyotlarni boshqa manbalar (ensiklopediyalar, ilmiy maqolalar va turli manbalar) bilan boyitish;
- film tomosha qilgach yoki kitob o'qigach konspekt yozish yoki muhokama o'tkazish;
- chet tilda qisqa metrajli filmlar va asarlarni real hodisalar hamda badiiylik jihatidan baholashni o'rganish tavsiya etiladi.



Mustaqil o'rganish jarayonida filmlardan foydalanish usullari

1. Ko'rish rejasini tuzish: masalan, haftada bitta film tomosha qilib, undan so'ng mavzusini o'rganish.
2. Qaydlar olish: filmdagi muhim voqealar, personajlar va real holatlarni yozib borish.
3. Qo'shimcha manbalar bilan solishtirish: filmdagi ma'lumotlarni darsliklar, maqolalar yoki hujjatli filmlar bilan taqqoslash.
4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: filmni nafaqat real ma'lumotlar, balki badiiy va mazmuniy jihatdan ham baholash.
5. Munozaraga kirishish: do'stlar yoki o'qituvchilar bilan film yuzasidan fikr almashish.

Qo'shimcha ravishda quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- zarur ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan yozib chiqish;
- filmdagi voqealar va ularning sabab-oqibatlarini tahlil qilish;
- o'rganish jarayonida filmlardan tashqari hujjatli filmlar, maqolalar va kitoblardan ham foydalanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqil ta'limni baholashda yagona metoddan foydalanish yetarli emas. Pedagog bir nechta baholash usullarini birgalikda qo'llashi, aniq va shaffof baholash mezonlarini belgilashi lozim. Bu talabalarda adolatli baholanishga bo'lgan ishonchni shakllantiradi va ularni yanada faol bo'lishga undaydi.

Mustaqil tayyorgarlik har bir talabaning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy yetukligi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Uni to'g'ri tashkil etish orqali nafaqat akademik muvaffaqiyatga, balki amaliy faoliyatda ham yuqori natijalarga erishish mumkin.

"Pomodoro" usuli talabalar, tadqiqotchilar, yozuvchilar, dasturchilar va boshqa soha vakillari uchun samarali, oddiy va universal usul sanaladi. Ushbu usul muntazam qo'llanilganda vaqtini samarali boshqarish, vazifalarni o'z vaqtida bajarish hamda stressni kamaytirish imkonini beradi.

Intervalli takrorlash bilimlarni "qisqa muddatli xotira"dan "uzoq muddatli xotira"ga o'tkazishning ilmiy asoslangan va samarali usuli hisoblanadi. Ushbu usul muntazamlik, intizom va to'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni orqali o'z samarasini namoyon etadi.

Internet imkoniyati mavjud bo'lmagan sharoitda ham, talabaning xohishi va intilishi bo'lsa, o'rganish uchun imkoniyatlar yetarli. Eng asosiysi, manbalarni to'g'ri tanlash, ularga reja asosida yondashish hamda qayta-qayta mustaqil takrorlashni amalga oshirish zarur.

Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot mustaqil ta'lim jarayonida ma'lumotlarni boyituvchi, qiziqarli va ko'p qirrali vosita bo'lib, ular yordamida talaba va kursantlar o'z bilimlarini chuqurlashtirishi, tanqidiy fikrlashini rivojlantirishi hamda ta'lim jarayonida shaxsiy faolligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5117-sonli qarori.
2. Ариян М.А. Повышенная самостоятельность учебного труда школьников при обучении иностранному языку / М.А. Ариян // Иностранные языки в школе. – 1999. – № 6. – С. 17–20.
3. Брейгина М.Е. О самоконтроле в обучении иностранному языку / М.Е. Брейгина // Иностранные языки в школе. – 2000. – № 1. – С. 23–26.
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
5. Козуб Л.А., Сысоева Е.Ф. Пособие по выполнению самостоятельной работы студентов: учебно-методическое пособие. – Воронеж: Истоки, 2017. – 56 с.
6. Назарова И.В. Самостоятельная работа как средство профессионально-творческого саморазвития студентов. Автореф. ... канд. пед. наук. – Саратов, 2011. – 23 с.
7. Нуриахметов Г.М. Самостоятельная работа учащихся с лексикой. – Бирск, 2018.
8. Рогова Г.В. Некоторые предложения по организации самостоятельной работы учащихся // ИЯШ. – М., 1980. – № 6. – С. 25–31.
9. Семенова В.Г. Самостоятельная работа студентов как важнейшая форма организации учебного процесса в рамках компетентностной модели образования // Организация самостоятельной работы студентов: материалы докладов II Всероссийской научно-практической интернет-конференции. – Саратов: Новый Проект, 2013. – С. 10–15.
10. Фадеева Н.Б. Об основных функциях самостоятельной работы в обучении иностранному языку. – Санкт-Петербург, 2018.
11. Neuner G., Hunfeld H. Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts. – Universität Gesamthochschule Kassel, 1993. – 176 S.
12. Rampillon U. Lerntechniken im Fremdsprachenunterricht. – Max Hüber Verlag, München, 1996. – 184 S.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.